

**TALABALARNING GRAMMATIK KOMPETENSIYASINI  
SHE’RIY MATNLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHGA  
INNOVATSION YONDASHUVLAR**

*Sattorova Shaxnoza Raxmonqulovna*

*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti  
shaxnoza\_sattorova@yahoo.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada nemis tilini o‘qitishda filolog talabalarning grammatik kompetensiyasini she’riy matnlar asosida rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida she’riy matnlardan foydalanish orqali talabalarning grammatik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha eksperimental ishlar olib borildi va natijada tajriba she’riy materiallarga asoslangan darslar talabalarning grammatik bilimlarini chuqurlashtirishda va ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Maqolada, shuningdek, innovatsion yondashuvning afzalliklari, uning xalqaro hamkorlik doirasidagi qo‘llanish imkoniyatlari va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** grammatik kompetensiya, nemis tili, innovatsion yondashuv, she’riy matnlar, xalqaro hamkorlik, xorijiy til o‘qitish, ta’limda innovatsiya, til o‘rganish metodikasi.

Bugungi kunda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o‘qitishning samaradorligini oshirishga qaratilgan yangicha yondashuvlar dolzarb masalaga aylanganligi bois globalizatsiya jarayonlari va xalqaro hamkorlikning jadallahushi natijasida chet tillarini o‘qitish sifati va metodologiyasiga bo‘lgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Ayniqsa, filologiya yo‘nalishi talabalari uchun til kompetensiyasining barcha komponentlarini, shu jumladan, grammatik kompetensiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan, nemis tilini o‘qitish jarayonida talabalarda grammatika bo‘yicha mustahkam bilim va malakalarni shakllantirishda an’anaviy va innovatsion metodlar uyg‘unligi yuqori samaradorlik beradi. Hozirgi vaqtida xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida tilga oid materiallarni zamonaviy va innovatsion vositalar asosida talabalarga yetkazish muhim vazifaga aylanganligini inobatga olib aytish mumkinki, she’riy matnlardan foydalanish til o‘rganish jarayoniga estetik,

badiiy va ma’naviy boylik bag‘ishlaydi, ularning ichki tuzilmasi esa grammatikani mukammal o’zlashtirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-metodik izlanishlar dalolat berishicha, o’zbek va rus tillari hamda chet tillar muqoyasasi tahlili o‘xshash grammatik hodisalar anchagina kuzatiladi. Masalan, 1) o‘quvchi o‘rganayotgan uchala tilda ham monand gapdagi so‘z tartibi, so‘z birikmasi shakli, so‘z yasalishi andazasi kabilar mavjud (formal o‘xhashlik); 2) uchala tilda ham tasdiq, so‘roq, inkor, modallik kabi grammatik ma’nolar borligi aniq (ma’noviy umumiylilik); 3) ish-harakat takrorlanib turishini, davom etishini, tugallanganligini bildiradigan fe’l zamonlari qo’llanadi (qo’llanilishdagi moslik) [1].

Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida innovatsion tendensiyalardan biri sifatida she’riy asarlar vositasida grammatik kompetensiyani shakllantirish va takomillashtirish zamonaviy til ta’limi tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘qituvchining pedagogik mahorati, xususan, ta’lim jarayoniga ijodiy yondashuvi talabalarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishning muhim omillaridan biridir [2]. Mazkur yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, talabalar grammatik qoidalarni faqat nazariy asosda o‘rganish bilangina cheklanmay, balki she’riy matnlarning lingvopoetik va badiiy-estetik komponentlari orqali grammatik strukturalarni intuitiv va mantiqiy ravishda anglab yetish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3].

So‘nggi yillarda innovatsion til o‘qitish metodikasi doirasida multimedia texnologiyalari, audio va video materiallar, onlayn resurslardan keng foydalanish bilan bir qatorda, she’riy asarlardan foydalanishning yangi shakllari taklif qilinmoqda. Baasner Rainer “Methoden und Modelle der Literaturwissenschaft. Eine Einführung” nomli asarida she’riy va musiqiy materiallarning grammatik kompetensiyaga ta’sirini ijobiy deb baholaydi va bu metodika orqali til o‘rganish jarayonining yanada qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’kidlaydi. Biroq, shu kunga qadar aynan filologiya yo‘nalishi talabalari uchun she’riy matnlar asosida grammatik kompetensiyani rivojlantirishning kompleks innovatsion modeli to‘liq ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy-metodik yondashuvlar asosida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Avvalo, nemis tili darslarida qo’llash uchun mos she’riy matnlar tanlab olindi hamda matnlar grammatik jihatdan tizimli va maqsadga muvofiq bo‘lib, ularning tarkibida ko‘p uchraydigan grammatik shakl va konstruktsiyalar (Perfekt, Konjunktiv II, Modal fe’llar va boshqalar) to‘liq qamrab olindi.

Matnlar tanlashda talabalar yosh va til darajasiga mosligi hamda estetik va madaniy qadriyatlari inobatga olindi. Eksperimental ishlar 2025 yil fevral oyi davomida Uzbekistan davlat jahon tillari universitetining filologiya yo‘nalishidagi nemis tili yo‘nalishi 1-bosqich talabalari ishtirokida o‘tkazildi. Tajriba ishtirokchilari eksperimental va nazorat guruhlariga bo‘lindi. Eksperimental guruh darslarida she’riy matnlardan foydalangan holda grammatika o‘rgatildi, nazorat guruhi esa an’anaviy grammatik mashqlar orqali bilim oldi. Tadqiqot davomida kuzatish, test, suhbat va anketa metodlari qo‘llanildi.

Tajriba-sinov natijalari ko‘rsatdiki, she’riy matnlar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning grammatik kompetensiyasini rivojlantirishda an’anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq bo‘ldi. Eksperimental guruhda ishtirok etgan talabalar grammatik strukturalarni o‘zlashtirishda yuqori natijalarga erishdi, matnlarni tahlil qilish, gap tuzish va grammatik qoidalardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, ijodiy fikrlash va emotsiyal ta’sirchanlik jihatidan ham ijobiy o‘zgarishlarni namoyon etishdi. Natijalarga ko‘ra, eksperimental guruhda 82% talabalar grammatik testlarda yuqori ball to‘plashgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 61% ni tashkil etdi. Shuningdek, talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnama natijasida eksperimental guruh talabalari darslarning qiziqarli va samarali kechganligini e’tirof etdilar. Bu esa o‘z navbatida she’riy matnlardan foydalanish grammatik kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion va samarali usuli ekanligini isbotlaydi. Ushbu metodikaning innovatsion xususiyatlari shundaki, u til o‘rganish jarayoniga emotsiyal-estetik omillarni singdiradi, talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi va chet tilidagi grammatik strukturalarni tabiiy va mazmunli kontekstda o‘zlashtirish imkonini beradi. She’riy matnlarning ichki strukturasi va ritmik xususiyatlari grammatika o‘rgatishda til unsurlarini mustahkamlash, qoidalarni ongli ravishda o‘zlashtirish va qo‘llash imkonini beradi. Adabiy tahlil va lingvistik tadqiqot o‘zaro chambarchas bog‘liq jarayonlar bo‘lib, bu ikki yondashuvning integratsiyasi chet tilini samarali o‘rgatish imkonini beradi [4].

Talabalarning grammatik kompetensiyasini rivojlantirish uchun raqamli poetik korpuslardan foydalanish usuli ham samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda nemis tilidagi she’riy matnlar lingvistik tahlil uchun raqamli platformaga joylashtiriladi va talabalar ushbu matnlarni interaktiv ravishda o‘rganadilar.

Masalan, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan dasturlar she’riy matnlarning grammatik tuzilishini ajratib, ularning morfologik va sintaktik xususiyatlarini avtomatik tahlil qiladi. Talabalar ushbu texnologiya yordamida turli grammatik shakllarning kontekstda qo‘llanilishini kuzatib, mustaqil mashqlarni bajarishlari mumkin. Bu usul an’anaviy yondashuvlarga nisbatan ko‘proq interaktivlik va individual yondashuvni ta’minlab, grammatik bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvning yana bir afzalligi, uning xalqaro hamkorlikdagi qo‘llanilishi mumkinligidir. Xususan, Evropa, Osiyo va boshqa mintaqalar oly o‘quv yurtlari o‘rtasidagi qo‘shma dasturlar, o‘qituvchilar va talabalar almashinushi jarayonlarida ushbu metodikaning amaliy ahamiyati yuqoriligini ko‘rsatadi. Nemis tilini o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalar va an’anaviy she’riy matnlarni uyg‘unlashtirish orqali innovatsion model yaratish xorijiy tillarni o‘qitishning global jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy matn, ayniqsa, she’riy asarlar orqali til o‘rganish talabalar uchun chuqur psixologik va estetik ta’sir ko‘rsatishi bilan ajralib turadi [5]. Ushbu usulning samaradorligini oshirish uchun gamifikatsiya elementlarini kiritish ham muhimdir. Masalan, talabalar she’riy matnlardagi grammatik birliklarni to‘g‘ri aniqlash orqali ball to‘plashlari yoki o‘zaro bahslarda ishtiroy etishlari mumkin. Virtual mukofotlar, reyting tizimi va motivatsion topshiriqlar orqali talabalar o‘quv jarayonida faol ishtiroy etadilar. Bu esa ularning nafaqat grammatik bilimlarini rivojlantirish, balki she’riy asarlarni chuqur tushunishlariga ham yordam beradi. Ushbu innovatsion yondashuv an’anaviy grammatik mashqlarga qaraganda ko‘proq qiziqish uyg‘otib, talabalarning mustaqil o‘rganish jarayonini jadallashtiradi [6].

Yuqorida tahlillar va tajriba natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, she’riy matnlar asosida grammatika o‘rgatish filolog talabalari uchun samarali va innovatsion usul hisoblanadi; ikkinchidan, bu yondashuv nafaqat grammatika, balki tilning boshqa komponentlari – leksika, fonetika va madaniy qadriyatlarni ham qamrab oladi; uchinchidan, xalqaro hamkorlik va qo‘shma ta’lim dasturlarida ushbu metodikaning qo‘llanish imkoniyatlari keng. Xorijiy til o‘qituvchilari darslarda she’riy materiallardan tizimli va maqsadga muvofiq tarzda foydalanishlari lozim. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan she’riy matn asosidagi metodik dars ishlanmalari ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 178 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat: O‘quv qo‘llanma. – Iqtisod-moliya, 2010. – 312 b.
3. Quronov D. Adbiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.– T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 224 b.
4. Umurov X. Adabiyot nazariyasi. Darslik “Shark” NMAK. 2002.–254 b.
5. Baasner, Rainer, Zens, Maria: Methoden und Modelle der Literaturwissenschaft. Eine Einführung. Berlin: Erich Schmidt Verlag. 2011, S. – 34.
6. Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022, – 247 b.